2026-yil
9-son

# “FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

# JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

**Bosh muharrir:**
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Mas’ul kotib:**
Muqimov Alisher

**Texnik muharrir:**
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

**TAHRIR HAY’ATI:**

**01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI**
*Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik*
*A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik*
*Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

**02.00.00 – KIMYO FANLARI**
*Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor*
*Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik*

**03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI**
*Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik*
*Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik*

**04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI**
*Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor*
*Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor*

**05.00.00 – TEXNIKA FANLARI**
*Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori,* akademik
*Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor*
*Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori,* akademik
*Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor*

**06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI**
*Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik*
*Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor*

**07.00.00 – TARIX FANLARI**
*Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik*
*Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik*
*Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik*

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**
*Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik*
*Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi*
*To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik*
*G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik*

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**
*Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor*
*Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor*

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**
*Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor*
*Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik*
*Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)*

**11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI**
*Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor*
*Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor*

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**
*Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor*
*Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik*
*Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor*
*Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor*

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**
*Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik*
*Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik*
*Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

**14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI**
*Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor*
*Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik*

**15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI**
*Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor*
*Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor*

**16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI**
*Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor*
*Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor*
*G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor*

**17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI**
*Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor*
*Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik*

**18.00.00 – ARXITEKTURA**
*Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor*
*Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor*

**19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI**
*Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya*
*Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya*
*Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent*

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

**22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI**
*Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor*
*Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori*

**23.00.00 – SIYOSIY FANLAR**
*Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori*
*Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori*

**24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI**
*Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik*
*Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor*

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

**UDK: 159.922.4:159.947.5:314.74-055.2**

# ISHLAYDIGAN VA ISHSIZ AYOLLARNING SHAXSIY-EMOTSIONAL XUSUSIYATLARIDAGI DIFFERENSIAL FARQLARNING PSIXOLOGIK TAHLILI

**Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna,**
International School of Finance Technology and Science instituti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada ishlaydigan va ishsiz ayollarning shaxsiy-emotsional ko'rsatkichlaridagi differensial xususiyatlar empirik tadqiq etilgan. Tadqiqotda Farg'ona, Samarqand va Toshkent viloyatlaridan jami 324 nafar respondent (203 nafar ishsiz, 121 nafar ishlaydigan ayol) ishtirok etib, "Shaxsning o'z holatini baholash" testi, B.I.Dodonovning "Umumiy hissiy yo'nalganlik" metodikasi, "Hissiy holatlarda o'z-o'zini baholash" hamda S.R.Pantileyevning "O'z-o'ziga munosabatni baholash" metodikalari qo'llanildi. Mann-Uitni U-mezoni va Kruskal-Uollis H-mezoni asosidagi tahlil natijasida bandlik maqomi ayollarning barcha psixologik xususiyatlarini emas, balki ayrim komponentlarini differensiallashtirishi aniqlandi. O'z holatini baholash ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori tafovut qayd etildi ($U=2207,5$; $p<0,01$). Ishlaydigan ayollarda glorik, romantik, gnostik va akizitiv hissiy yo'nalishlar hamda aks ettirilgan o'ziga munosabat, ishsiz ayollarda esa kommunikativ hislar va ichki ziddiyat ustunlik qildi. Natijalar bandlik maqomining ta'siri selektiv va komponent-spetsifik xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** bandlik maqomi, shaxsiy-emotsional xususiyatlar, ishsiz ayollar, o'ziga munosabat, hissiy yo'nalganlik, ichki ziddiyat, Mann-Uitni U-mezoni, komponent-spetsifik ta'sir.

# ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ РАЗЛИЧИЙ В ЛИЧНОСТНО-ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЯХ РАБОТАЮЩИХ И НЕРАБОТАЮЩИХ ЖЕНЩИН

**Аннотация.** В статье эмпирически исследованы дифференциальные особенности личностно-эмоциональных показателей работающих и безработных женщин. В исследовании приняли участие 324 респондента (203 безработных, 121 работающая женщина) из Ферганской, Самаркандской и Ташкентской областей; применены тест самооценки состояния, методика Б.И.Додонова «Общая эмоциональная направленность», методика «Самооценка эмоциональных состояний» и методика С.Р.Пантилеева «Исследование самоотношения». Анализ с использованием критериев U Манна-Уитни и H Краскела-Уоллиса показал, что статус занятости

дифференцирует не все, а лишь отдельные психологические характеристики. Наибольшее различие зафиксировано по показателю самооценки состояния (U=2207,5; p<0,01). У работающих женщин преобладали глорические, романтические, гностические и акизитивные эмоциональные направленности и отражённое самоотношение, у безработных - коммуникативные чувства и внутренняя конфликтность.

**Ключевые слова:** статус занятости, личностно-эмоциональные особенности, безработные женщины, самоотношение, эмоциональная направленность, внутренняя конфликтность, критерий U Манна-Уитни.

## PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF DIFFERENTIAL DIFFERENCES IN PERSONAL AND EMOTIONAL CHARACTERISTICS OF EMPLOYED AND UNEMPLOYED WOMEN

**Abstract.** The article empirically examines the differential characteristics of personal-emotional indicators between employed and unemployed women. The study involved 324 respondents (203 unemployed, 121 employed women) from the Fergana, Samarkand and Tashkent regions, using a self-state assessment test, B.I.Dodonov's "General Emotional Orientation" methodology, the "Self-assessment of emotional states" technique and S.R.Pantileev's self-attitude inventory. Analysis using the Mann-Whitney U-test and the Kruskal-Wallis H-test showed that employment status differentiates not all but only particular psychological characteristics. The largest difference was recorded for subjective self-state assessment (U=2207.5; p<0.01). Employed women scored higher on gloric, romantic, gnostic and acquisitive emotional orientations and on reflected self-attitude, whereas unemployed women scored higher on communicative feelings and internal conflict.

**Key words:** employment status, personal-emotional characteristics, unemployed women, self-attitude, emotional orientation, internal conflict, Mann-Whitney U-test.

Bandlik maqomi ayol shaxsining psixologik holatini belgilovchi muhim ijtimoiy-psixologik omillardan biri hisoblanadi. Kasbiy faoliyat nafaqat moddiy ta'minot manbai, balki ijtimoiy identifikatsiya, o'zini o'zi ro'yobga chiqarish, kompetentlik hissi va muntazam ijtimoiy aloqalar manbai sifatida ham xizmat qiladi. M.Jahodaning latent funksiyalar nazariyasiga ko'ra, mehnat faoliyati daromaddan tashqari vaqtning tuzilmalashuvi, ijtimoiy aloqalar, umumiy maqsadlarga daxldorlik, ijtimoiy maqom va muntazam faoliyat kabi psixologik ehtiyojlarni ham qondiradi. Shu sababli ishlaydigan va ishsiz ayollarning shaxsiy-emotsional profillarini qiyosiy tahlil qilish ishsizlikning psixologik ta'sir mexanizmlarini aniqroq tushunish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ishsizlikning psixologik oqibatlarini yagona umumlashgan "salbiy ta'sir" sifatida talqin qilish metodologik jihatdan yetarli emas. Empirik tadqiqotlar bandlik maqomining shaxs psixologiyasiga ta'siri barcha ko'rsatkichlarda bir xil kuchda namoyon bo'lmasligini ko'rsatmoqda. Aynan qaysi psixologik komponentlar bandlik maqomiga sezgir, qaysilari esa boshqa omillar bilan belgilanishini aniqlash psixologik yordamni differensiallashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi ishlaydigan va ishsiz ayollarning o'z holatini baholash, umumiy hissiy yo'nalganlik, emotsional holatlarda o'z-o'zini baholash hamda o'z-o'ziga munosabat ko'rsatkichlaridagi differensial xususiyatlarni empirik aniqlash va ularni nazariy jihatdan talqin qilishdan iborat.

Tadqiqotda Farg'ona, Samarqand va Toshkent viloyatlaridan 203 nafar ishsiz ayol hamda qiyosiy guruh sifatida 121 nafar ishlaydigan ayol, jami 324 nafar respondent ishtirok etdi. Ishsiz ayollar hududlar kesimida Farg'ona viloyatidan 67 nafar, Samarqand viloyatidan 86 nafar va Toshkent viloyatidan 50 nafar respondentdan iborat bo'ldi. Ishlaydigan ayollar guruhiga esa Farg'ona viloyatidan 40 nafar, Samarqand viloyatidan 34 nafar va Toshkent viloyatidan 47 nafar respondent jalb qilindi.

Ma'lumotlar to'plash uchun "Shaxsning o'z holatini baholash" testi, B.I.Dodonovning "Shaxsning umumiy hissiy yo'nalganligini aniqlash" metodikasi, A.Wessman va D.Ricks tomonidan taklif etilgan "Hissiy holatlarda o'z-o'zini baholash" metodikasi hamda S.R.Pantileyevning "Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" metodikasi qo'llanildi. Ikki mustaqil guruh ko'rsatkichlarini qiyoslashda Mann-Uitnining U-mezoni, uchdan ortiq guruhni qiyoslashda esa Kruskal-Uollisning H-mezonidan foydalanildi. Taqsimotning normal bo'lmasligi hisobga olinib, parametrik bo'lmagan mezonlar tanlandi; natijalar o'rtacha rang ko'rsatkichlari orqali taqdim etilgan. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p<0,05$ va $p<0,01$ sifatida qabul qilindi.

Dastlab "Shaxsning o'z holatini baholash" metodikasi natijalari respondentlarning bandlik maqomiga ko'ra qiyosiy tahlil qilindi (1-jadval).

**1-jadval**
**Shaxsning o'z holatini baholash ko'rsatkichining ishsiz hamda ishlaydigan ayollar kesimidagi tafovutlari (n=324)**

| Shkala | Ishsiz ayollar (n=203) o'rtacha rang | Ishlaydigan ayollar (n=121) o'rtacha rang | U | p |
|---|---|---|---|---|
| Shaxsning o'z holatini baholash | 135,13 | 72,67 | 2207,5 | 0,000** |

*Izoh: * p<0,05; ** p<0,01.*

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, o'z holatini baholash ko'rsatkichi bo'yicha guruhlar o'rtasida statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli tafovut qayd etildi (U=2207,5; p<0,01). Ishsiz ayollarda o'rtacha rang 135,13 ni, ishlaydigan ayollarda esa 72,67 ni tashkil etdi. Olingan natijalar ishsiz ayollarda o'z psixologik holatini salbiy baholash, emotsional zo'riqish, xavotirlanish va emotsional beqarorlik ko'rsatkichlari ishlaydigan ayollarga nisbatan yuqoriroq namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Mazkur tafovut ishsizlik sharoitida iqtisodiy noaniqlik, kasbiy o'zini ro'yobga chiqarish imkoniyatining cheklanishi, ijtimoiy mavqening o'zgarishi hamda kelajak istiqbollariga nisbatan ishonchsizlikning kuchayishi bilan izohlanishi mumkin.

Keyingi bosqichda respondentlarning umumiy hissiy yo'nalganligi bandlik maqomi kesimida tahlil qilindi (2-jadval).

**2-jadval**
**"Shaxsning umumiy hissiy yo'nalganligini aniqlash" metodikasining ishsiz hamda ishlaydigan ayollar kesimidagi tafovutlari (n=324)**

| Shkalalar | Ishsiz ayollar (n=203) | Ishlaydigan ayollar (n=121) | U | p |
|---|---|---|---|---|
| Altruistik hislar | 124,88 | 119,95 | 4288 | 0,676 |
| Kommunikativ hislar | 128,75 | 102,09 | 3502 | 0,024* |
| Glorik hislar | 117,85 | 152,35 | 3218,5 | 0,004** |
| Praksik hislar | 123,67 | 125,53 | 4398,5 | 0,874 |
| Pugnistik hislar | 122,30 | 131,85 | 4120,5 | 0,419 |
| Romantik hislar | 117,13 | 155,69 | 3071,5 | 0,001** |
| Gnostik hislar | 119,26 | 145,88 | 3503,5 | 0,024* |
| Estetik hislar | 125,06 | 119,09 | 4250 | 0,613 |
| Gedonistik hislar | 121,04 | 137,64 | 3866 | 0,161 |
| Akizitiv hislar | 117,99 | 151,73 | 3246 | 0,004** |

*Izoh: * p<0,05; ** p<0,01.*

Jadval natijalari umumiy hissiy yo'nalganlikning o'n komponentidan beshtasi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Kommunikativ emotsiyalar bo'yicha ishsiz ayollarning o'rtacha rang ko'rsatkichi 128,75 ni, ishlaydigan ayollarda esa 102,09 ni tashkil etib, tafovut ahamiyatli bo'ldi (U=3502; p<0,05). Mazkur natija ishsiz ayollarda shaxslararo muloqot, hissiy

yaqinlik va qo‘llab-quvvatlanishga ehtiyoj nisbatan kuchliroq ekanligini ko‘rsatadi. Bizning fikrimizcha, kasbiy jamoa bilan muntazam aloqaning cheklanganligi ushbu ehtiyojning oila, qarindoshlar va yaqin ijtimoiy muhit orqali qondirilishiga bo‘lgan intilishni kuchaytiradi. Shu sababli kommunikativ emotsiyalarning yuqoriligi faqat ijtimoiy faollik belgisi emas, balki muloqot tanqisligini kompensatsiya qilishga qaratilgan psixologik ehtiyoj sifatida ham talqin qilinishi mumkin.

Glorik emotsiyalar bo‘yicha aksincha tendensiya kuzatildi: ishsiz ayollarda o‘rtacha rang 117,85 ni, ishlaydigan ayollarda 152,35 ni tashkil etdi ($U=3218,5$; $p<0,01$). Glorik emotsiyalar muvaffaqiyatga erishish, tan olinish, shaxsiy yutuqlardan faxrlanish va ijtimoiy maqomga ega bo‘lish bilan bog‘liq kechinmalarni ifodalaydi. Ishlaydigan ayollarda mazkur ko‘rsatkichning yuqoriligi kasbiy faoliyatning natijadorlik, rag‘batlantirish, hamkasblar tomonidan e’tirof etilish va kompetentlikni namoyon etish uchun ko‘proq imkoniyat yaratishi bilan izohlanadi.

Romantik emotsiyalar bo‘yicha ham ishlaydigan ayollarda yuqoriroq o‘rtacha rang qayd etildi (155,69 va 117,13; $U=3071,5$; $p<0,01$). B.I.Dodonov tasnifida romantik emotsiyalar yangilik, sirli va noodatiy kechinmalar, idealga intilish hamda hayotiy taassurotlarning emotsional boyligini his etish bilan bog‘liq. Shu sababli ushbu shkalani faqat sevgi munosabatlari bilan izohlash metodologik jihatdan tor talqin bo‘lar edi. Ishlaydigan ayollarda ijtimoiy muhitning kengligi, yangi vaziyat va tajribalarga duch kelish hamda hayotiy voqealarning xilma-xilligi romantik yo‘nalganlikning kuchliroq namoyon bo‘lishiga imkon yaratishi mumkin.

Gnostik emotsiyalar bo‘yicha ishsiz ayollarning o‘rtacha rangi 119,26 ni, ishlaydigan ayollarda 145,88 ni tashkil etdi ($U=3503,5$; $p<0,05$). Ish faoliyati ko‘pincha yangi vazifalarni bajarish, kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish va doimiy o‘rganishni talab qilgani sababli ishlaydigan ayollarda bilishga yo‘nalgan emotsional qoniqishning yuqoriligi tabiiy holat sifatida namoyon bo‘ladi. Akizitiv emotsiyalar bo‘yicha ham ishlaydigan ayollarda yuqoriroq ko‘rsatkich qayd etilib, ularning o‘rtacha rangi 151,73 ni tashkil etdi ($U=3246$; $p<0,01$). Bu barqaror daromad, moddiy mustaqillik va faoliyat natijalarini bevosita his qilish imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, altruistik, praksik, pugnistik, estetik va gedonistik hislar bo‘yicha guruhlar o‘rtasida statistik ahamiyatli tafovut aniqlanmadi ($p>0,05$). Bu natija muhim metodologik ahamiyatga ega: emotsional sohaning bir qator komponentlari bandlik maqomiga sezgir emas va boshqa - individual-psixologik hamda oilaviy-ijtimoiy - omillar bilan belgilanadi.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida emotsional holatlarda o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi (3-jadval).

**3-jadval**

**Emotsional holatlarda o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichining ishsiz hamda ishlaydigan ayollar kesimidagi tafovutlari (n=324)**

| Shkalalar | Ishsiz ayollar (n=203) | Ishlaydigan ayollar (n=121) | U | p |
|---|---|---|---|---|
| Xotirjamlik – xavotirlanish | 123,28 | 127,31 | 4320,5 | 0,728 |
| Energiya – charchoq | 121,84 | 133,97 | 4027,5 | 0,300 |
| Yuksalish – tushkunlik | 121,45 | 135,77 | 3948 | 0,215 |
| O‘ziga ishonch – ishonchsizlik | 129,04 | 100,75 | 3443 | 0,014* |

*Izoh: * p<0,05; ** p<0,01.*

Uchinchi jadval ma’lumotlari ko‘rsatadiki, xotirjamlik-xavotirlanish (U=4320,5; p>0,05), energiya-charchoq (U=4027,5; p>0,05) va yuksalish-tushkunlik (U=3948; p>0,05) shkalalari bo‘yicha bandlik maqomining mustaqil differensial ta’siri aniqlanmadi. Mazkur natija zamonaviy hayotning iqtisodiy noaniqligi, oilaviy mas’uliyat, kundalik stress va ijtimoiy talablar har ikkala guruhdagi ayollarning emotsional holatiga ta’sir ko‘rsatishi bilan izohlanishi mumkin. Ishlaydigan ayollarda kasbiy yuklama va ish-oila rollarini uyg‘unlashtirish zarurati, ishsiz ayollarda esa uy-ro‘zg‘or yumushlari, bola parvarishi va iqtisodiy noaniqlik o‘xshash psixologik yuklamani yuzaga keltirishi ehtimoldan xoli emas.

O‘ziga ishonch-ishonchsizlik shkalasi bo‘yicha esa statistik ahamiyatli tafovut qayd etildi (U=3443; p<0,05): ishsiz ayollarda o‘rtacha rang 129,04 ni, ishlaydigan ayollarda 100,75 ni tashkil etdi. Mazkur natijaning mazmuniy talqini metodikadagi shkalaning kodlanish yo‘nalishiga bog‘liq bo‘lib, uni bir ma’noli xulosa sifatida qabul qilish ilmiy ehtiyotkorlikni talab qiladi. Agar yuqori ball o‘ziga ishonchning yuqoriligini ifodalasa, ayrim ishsiz ayollarning o‘zini oilaviy muhitda erkinroq his qilishi, kasbiy raqobat va baholash bosimining mavjud emasligi hamda o‘z qadrini ko‘proq oilaviy mavqe asosida shakllantirishi bilan izohlanishi mumkin.

Nihoyat, shaxsning o‘z-o‘ziga munosabati tizimidagi differensial farqlar tahlil qilindi (4-jadval).

**4-jadval**
**Shaxsning o‘z-o‘ziga munosabatini baholash ko‘rsatkichlarining ishsiz hamda ishlaydigan ayollar kesimidagi tafovutlari (n=324)**

| Shkalalar | Ishsiz ayollar (n=203) | Ishlaydigan ayollar (n=121) | U | p |
|---|---|---|---|---|
| Samimiylik | 125,60 | 116,61 | 4141 | 0,430 |

| Shkalalar | Ishsiz ayollar (n=203) | Ishlaydigan ayollar (n=121) | U | p |
|---|---|---|---|---|
| O‘z-o‘ziga ishonch | 121,33 | 136,32 | 3924 | 0,196 |
| O‘z-o‘zini idora qilish | 123,45 | 126,53 | 4354,5 | 0,792 |
| O‘z-o‘ziga munosabatning aks etishi | 119,33 | 145,53 | 3518,5 | 0,023* |
| O‘z-o‘zini qadrlash | 122,14 | 132,57 | 4089 | 0,370 |
| O‘z-o‘zini qabul qilish | 120,47 | 140,30 | 3749 | 0,090 |
| O‘z-o‘ziga bog‘liqlik | 124,76 | 120,49 | 4311,5 | 0,712 |
| Ichki ziddiyat | 128,44 | 103,51 | 3564,5 | 0,031* |
| O‘z-o‘zini ayblash | 119,43 | 145,08 | 3538,5 | 0,028* |

*Izoh: * $p<0,05$; ** $p<0,01$.*

To‘qqiz komponentdan uchtasi bo‘yicha statistik ahamiyatli tafovutlar qayd etildi. Aks ettirilgan o‘ziga munosabat ko‘rsatkichi bo‘yicha ishlaydigan ayollarda nisbatan yuqori natija olindi ($U=3518,5$; $p<0,05$). Mazkur ko‘rsatkich shaxsning boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishi va baholanishi haqidagi subyektiv tasavvurlarini ifodalaydi. Ishlaydigan ayollarda uning yuqoriligi mehnat jamoasidagi muntazam muloqot, kasbiy faoliyat natijalarining baholanishi hamda doimiy qayta aloqa olish imkoniyati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Kasbiy muhit ayolga o‘z harakatlari natijasini kuzatish va “Men” obrazini qayta baholash uchun qo‘shimcha refleksiv makon yaratadi.

Ichki ziddiyat omili bo‘yicha ishsiz ayollarning o‘rtacha rangi 128,44 ni, ishlaydigan ayollarda 103,51 ni tashkil etib, tafovut ahamiyatli bo‘ldi ($U=3564,5$; $p<0,05$). Bu natija ishsiz ayollarda o‘zidan qoniqmaslik, shaxsiy imkoniyatlar bilan real hayotiy vaziyat o‘rtasidagi nomuvofiqlikni kechirish hamda o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabatning kuchliroq namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Ishsizlik vaziyatida “nega o‘z imkoniyatlarimni amalga oshira olmayapman?”, “kasbiy faoliyatga qaytishim mumkinmi?” kabi ichki savollarning faollashishi mavjud holat bilan kutilayotgan “Men” obrazi o‘rtasidagi tafovutni kuchaytirishi mumkin.

O‘zini ayblash omili bo‘yicha esa, aksincha, ishlaydigan ayollarda yuqoriroq ko‘rsatkich qayd etildi (145,08 va 119,43; $U=3538,5$; $p<0,05$). Mazkur natijani talqin qilishda ayolning bajaradigan ijtimoiy rollari soni va ularning o‘zaro muvofiqligini hisobga olish muhim. Ishlaydigan ayol bir vaqtning o‘zida mutaxassis, ona, turmush o‘rtog‘i va oila a’zosi rollarini bajarishi natijasida “barcha vazifalarni yetarlicha bajara olmayapman” degan subyektiv kechinmaga duch kelishi mumkin. Ishsiz ayollarda vaqt resursining ko‘proq oilaviy vazifalarga yo‘naltirilishi ish-oila rollari o‘rtasidagi mazkur turdagi konfliktni nisbatan

kamaytiradi. Biroq bu ularda o‘zini ayblash umuman mavjud emasligini anglatmaydi: ishsiz ayollarda o‘zini ayblash boshqa manbalardan - kasbiy imkoniyatlardan foydalanmaslik yoki amalga oshmagan hayotiy rejalardan - kelib chiqishi mumkin.

Qo‘shimcha tahlil sifatida ishsiz ayollarning o‘z holatini baholash ko‘rsatkichi hududlar kesimida qiyoslandi (5-jadval).

**5-jadval**
**Shaxsning o‘z holatini baholash ko‘rsatkichining hududlar kesimidagi tafovutlari (ishsiz ayollar misolida, n=203)**

| Shkala | Farg‘ona viloyati (n=67) | Samarqand viloyati (n=86) | Toshkent viloyati (n=50) | H | p |
|---|---|---|---|---|---|
| O‘z holatini baholash | 89,48 | 115,14 | 114,32 | 9,509 | 0,009** |

*Izoh: * p<0,05; ** p<0,01.*

Hududlar kesimida statistik jihatdan ahamiyatli tafovutlar aniqlandi (H=9,509; p<0,01): o‘z holatini baholash ko‘rsatkichi Samarqand viloyatida istiqomat qiluvchi ishsiz ayollarda nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘lgan. Shu bilan birga, mazkur farqni faqat hududga xos an’anaviy qadriyatlar yoki “sabr-toqatlilik” kabi sifatlar bilan bir tomonlama tushuntirish ilmiy jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi, chunki shaxsning o‘z holatini baholashi iqtisodiy, oilaviy, ijtimoiy va madaniy omillarning ko‘p darajali ta’siri natijasida shakllanadi. Umumiy hissiy yo‘nalganlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha esa hududlararo tafovutlar statistik jihatdan tasdiqlanmadi, bu esa emotsional yo‘nalganlikning yashash hududining o‘zi bilan bevosita belgilanmasligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar bandlik maqomining o‘zi shaxsning barcha psixologik xususiyatlarini bir xil darajada belgilamasligini, uning ta’siri selektiv va komponent-spetsifik xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda o‘rganilgan 24 ta ko‘rsatkichdan 9 tasi bo‘yicha statistik ahamiyatli tafovut qayd etildi. Bu M.Jahodaning latent funksiyalar nazariyasi bilan uyg‘un bo‘lib, ishsizlikning ta’siri aynan ijtimoiy aloqalar, tashqi baholanish va ijtimoiy maqom orqali qondiriladigan ehtiyojlar sohasida yaqqolroq namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi.

Natijalarni umumlashtirganda ikki qutbli psixologik konfiguratsiya kuzatiladi. Ishlaydigan ayollarda kasbiy faoliyat, ijtimoiy muloqot va muntazam tashqi baholanish aks ettirilgan o‘ziga munosabat hamda glorik, romantik, gnostik va akizitiv emotsional yo‘nalishlarning faollashuvi bilan tavsiflanadi - ya’ni tashqi olamga va yutuqqa yo‘nalgan emotsional profil ustunlik qiladi. Ishsiz ayollarda esa

kommunikativ ehtiyoj va ichki ziddiyat ustunlik qilib, ichki refleksiyaga va munosabatlarni saqlashga yo‘nalgan profil shakllanadi.

Alohida e’tiborga molik jihat shundaki, o‘zini ayblash ko‘rsatkichi ishlaydigan ayollarda yuqoriroq bo‘lib chiqdi. Bu natija bandlikni bir ma’noli “himoya omili”, ishsizlikni esa bir ma’noli “xavf omili” sifatida talqin qilish noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi. Har ikkala maqom ham o‘ziga xos psixologik resurslar va o‘ziga xos xavf omillariga ega. Ishlaydigan ayollarda rollararo yuklama, ishsiz ayollarda esa amalga oshmagan imkoniyatlar kechinmasi asosiy zo‘riqish manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Amaliy nuqtayi nazardan aniqlangan farqlar ishsiz ayollar bilan ishlashda faqat “bandlikka qaytarish” emas, balki ularning kommunikativ va ijtimoiy ehtiyojlarini muqobil, konstruktiv yo‘llar bilan qondirishga ko‘maklashish zarurligini ko‘rsatadi. Ishsiz ayollarda kommunikativ ehtiyojning ustunligi mehnat faoliyati orqali qondirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy aloqa ehtiyojining boshqa manbalar (oila, do‘stlar, mahalla) orqali qondirilishga urinishini aks ettiradi, biroq bu muqobil manbalar kasbiy muhitdagi muntazam va tizimli ijtimoiy aloqa o‘rnini to‘liq bosa olmasligi ehtimoli mavjud.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida quyidagilarni qayd etish lozim: tanlanma uchta viloyat bilan chegaralangan; dizayn kesimiy bo‘lgani sababli aniqlangan tafovutlar sabab-oqibat munosabati sifatida talqin qilinmaydi; guruhlar hajmi teng emas (203 va 121). Shu sababli natijalarni umumlashtirishda ehtiyotkorlik zarur bo‘lib, longitudinal tadqiqotlar orqali qo‘shimcha tasdiqlash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar:

1. Bandlik maqomi ayollarning shaxsiy-emotsional ko‘rsatkichlariga selektiv ta’sir ko‘rsatadi: eng yuqori tafovut o‘z holatini subyektiv baholash ko‘rsatkichida qayd etilgan ($U=2207,5$; $p<0,01$), emotsional holat shkalalarining aksariyati bo‘yicha esa mustaqil differensial ta’sir aniqlanmagan.
2. Umumiy hissiy yo‘nalganlikning o‘n komponentidan beshtasi bandlik maqomiga sezgir bo‘lib chiqdi: ishsiz ayollarda kommunikativ hislar, ishlaydigan ayollarda esa glorik, romantik, gnostik va akizitiv hislar ustunlik qildi.
3. O‘z-o‘ziga munosabat tizimida ishlaydigan ayollarda aks ettirilgan o‘ziga munosabat va o‘zini ayblash, ishsiz ayollarda esa ichki ziddiyat ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori bo‘ldi. Bu har ikkala bandlik maqomining o‘ziga xos psixologik xavf omillariga ega ekanligini ko‘rsatadi.
4. Ishsiz ayollar bilan psixologik ishlashda kommunikativ ehtiyojlarni konstruktiv qondirish, ichki ziddiyatni bartaraf etish va o‘z-o‘zini realistik baholashni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.
5. Bandlik xizmatlari va ishga joylashtirish dasturlarini faqat kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan cheklamasdan, ayollarning ijtimoiy tan olinish va muntazam kommunikativ muhitga bo‘lgan ehtiyojini hisobga oluvchi kompleks yondashuv asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

6. Ishlaydigan ayollar bilan ishlashda rollararo yuklamani kamaytirish va o‘zini ayblash tendensiyasini konstruktiv qayta ishlashga qaratilgan psixoprofilaktik tadbirlar zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Jahoda M. Employment and Unemployment: A Social-Psychological Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1982. – 136 p.
4. Warr P.B. Work, Unemployment, and Mental Health. – Oxford: Clarendon Press, 1987. – 361 p.
5. Paul K.I., Moser K. Unemployment impairs mental health: Meta-analyses // Journal of Vocational Behavior. – 2009. – Vol. 74(3). – P. 264–282.
6. Bartley M. Unemployment and ill health: understanding the relationship // Journal of Epidemiology and Community Health. – 1994. – Vol. 48(4). – P. 333–337.
7. Додонов Б.И. Эмоция как ценность. – М.: Политиздат, 1978. – 272 с.
8. Пантилеев С.Р. Самоотношение как эмоционально-оценочная система. – М.: МГУ, 1991. – 110 с.
9. Ефремова Г.И. Психологическое обеспечение профессиональной поддержки безработных женщин: дис. ... д-ра психол. наук. – М., 2002.
10. Наследов А.Д. SPSS: компьютерный анализ данных в психологии и социальных науках. – СПб.: Питер, 2007. – 416 с.
11. G‘afforova M.Q. Ayollar psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
12. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2002. – 232 b.
13. Jurayeva Sh.S. Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarning namoyon bo‘lishining psixologik omillari: psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2026. – 140 b.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

**Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ**
**Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»**

**Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.**

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
**E-mail:** saen_2024@mail.ru
**Jurnal sayti:** www.saen.uz
**Telegram kanali:** **https://t.me/saen_2024**

**Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.**

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**ISSN:** 3093-8694